ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889,
2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-3

PEDAGOGLARDA KASBIY KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHNING O‘ZIGA XOS JIHATLARI

Asadova Gulshoda Ilhomovna
“Alfraganus university”ning 1-bosqich magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘qituvchining kasbiy ko‘nikmalarini rivojlantirishning muhim jihatlari tahlil qilingan. Ta’lim sifati va uning samaradorligini oshirishda pedagoglarning malakasi va kasbiy rivojlanishiga bog‘liq, zamonaviy ta’lim jarayonida o‘qituvchilarning doimiy o‘z ustida ishlashi, yangi pedagogik texnologiyalarni o‘zlashtirishi va innovatsion yondashuvlarni tatbiq etishi zarurligi bayon qilingan.

Kalit so‘zlar: Pedagog, pedagogik mahorat, kasbiy ko‘nikma, innovatsion texnologiya, refleksiya, ta’lim sifati, malaka oshirish.

Annotation: This article analyzes the important aspects of developing teachers' professional skills. The quality and effectiveness of education largely depend on teachers' qualifications and professional development. It emphasizes the necessity for teachers to continuously improve themselves, adopt new pedagogical technologies, and apply innovative approaches in the modern education process.

Keywords: Teacher, pedagogical mastery, professional skills, innovative technology, reflection, education quality, professional development.

Аннотация: В данной статье анализируются важные аспекты развития профессиональных навыков педагогов. Качество и эффективность образования во многом зависят от квалификации учителей и их профессионального роста. Подчеркивается необходимость постоянного самосовершенствования, освоения новых педагогических технологий и применения инновационных подходов в современном образовательном процессе.

Ключевые слова: учитель, педагогическое мастерство, профессиональные навыки, инновационные технологии, рефлексия, качество образования, профессиональное развитие.

Kirish. Bugungi kunda ta’lim sifati jamiyat taraqqiyotining eng muhim omillaridan biri hisoblanadi. Ta’lim jarayonining samaradorligi esa bevosita o‘qituvchilarning kasbiy mahorati va ko‘nikmalariga bog‘liq. Shuning uchun ham o‘qituvchilarning kasbiy rivojlanishi, yangi pedagogik yondashuvlarni o‘zlashtirishi va o‘z ustida ishlashi dolzarb masalalardan biridir. 2021-yil 25-yanvardagi "Xalq ta'limi sohasidagi ustuvor vazifalar muhokamasi" yig'ilishida Prezidentimiz: "O'qituvchi kadrlarning bilimi va kasb mahoratini muntazam oshirib borish, ularni rag'batlantirish borasidagi ishlarni yangi bosqichga ko'tarish zarur" degan fikrlarni bildirganlar.

Dunyoda ko‘plab kasblar bor, ammo ularning orasida eng sharaflisi, eng ulug‘i bu o‘qituvchilik. O‘qituvchi insoniyatni zulmatdan nurga eltuvchi, haqiqat yo‘liga boshlovchi, qalblarga bilim va ma’rifat urug‘ini ekuvchi muqaddas shaxsdir. O‘qituvchi - bu kelajakni yaratadigan, ertangi kunning buyuk insonlarini tarbiyalaydigan fidoyi, mehribon va sabrli murabbiydir. Har qanday millatning kelajagi uning ta’limi va ma’rifatida mujassam. Agar o‘qituvchi bo‘lmasa, olimlar yetishib chiqmaydi, muhandislar, siyosatchilar va shoirlar shakllanmaydi. Chunki har qanday bilimning boshlang‘ich nuqtasi- bu o‘qituvchining saboq bergan darslari, u yetkazgan donishmandlik kalomlaridir. O‘qituvchi- bu jamiyat ustuni, jamiyat taraqqiyoti va kelajagini belgilovchi, nafaqat bilim, balki ilhom va axloqiy qadriyatlarni ham tarbiyalaydigan, ma’rifat bayrog‘ini baland tutuvchi,

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889,
2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-3

bilim cho‘qqilarini zabt etishga yo‘naltiruvchi yo‘lboshchi demakdir. U jamiyatning har bir a’zosiga yo‘l ko‘rsatuvchi, qalblarga nur sochuvchi yulduzdir.

Davlatimiz rahbarining o‘qituvchilar to‘g‘risidagi qarashlari bunga yaqqol misoldir. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2020-yil 30-sentabrdagi "O'qituvchi va murabbiylar kuni"ga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqida: "O'qituvchi va murabbiylar bizning eng yaqin ko'makchilarimiz, ming-minglab farzandlarimizning bilimli, egali kasb-hunar egasi bo'lishi, chinakam vatanparvar insonlar bo'lib voyaga yetishida ularning xizmati beqiyosdir"[2].

Adabiyotlar tahlili. Rivojlanib borayotgan jahon ta’lim tizimida yuz berayotgan tub o‘zgarishlar, innovatsion texnologiyalarning shiddat bilan rivojlanishi, ta’lim sohasiga zamonaviy yondashuvlarning kirib kelishi o‘qituvchilarning kasbiy ko‘nikmalarini muntazam rivojlantirib borishini taqazo etmoqda. Ta’lim sifatini oshirish, raqobatdosh kadrlarni tayyorlash, yetishib kelayotgan yoshlarni zamonaviy bilim va ko‘nikmalar bilan qurollantirish bevosita o‘qtuvchining kasbiy mahoratiga bog‘liq.

Pedagog olimlardan N.N.Azizxodjayeva, B.R.Adizov, C.Bazarova, O.Musurmonova, Sh.Shodmonova, N.G‘.Egamberdiyeva va boshqalar tomonidan kasbiy kompetentik va pedagogic mahorat borasida ilmiy izlanishlar olib borishgan.

O‘qtuvchilarning kasbiy ko‘nikmalarini rivojlantirish, ularning malakasini muntazam oshirib borish bugungi kunning eng dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Pedagog olim A. Xoliqov ta’kidlaganidek, o‘qituvchining kasbiy mahorati doimiy rivojlanib borishi kerak. U o‘zini doimiy ravishda takomillashtirishi, yangi pedagogik texnologiyalarni o‘zlashtirishi va zamonaviy ta’lim tendensiyalaridan xabardor bo‘lishi lozim. Shuningdek, o‘qituvchi o‘z faoliyatini tahlil qilib, yutuqlari va kamchiliklarini baholab borishi muhim sanaladi. A.Xoliqovning “Pedagogik mahorat” nomli kitobida o‘qituvchilarning kasbiy ko‘nikmalarini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilgan. Bu kitobda o‘qituvchining pedagogik mahoratini shakllantirish va takomillashtirishga oid quyidagi fikrlar bildirilgan:

1. Pedagogik texnologiyalarni qo'llash: O'qituvchi zamonaviy pedagogik texnologiyalarni o'zlashtirishi va dars jarayonida samarali qo'llay olishi kerak. Bu o'quvchilarning bilim olish jarayonini osonlashtiradi va qiziqarli qiladi.

2. Refleksiya va o'z-o'zini tahlil qilish: O'qituvchi o'z faoliyatini muntazam ravishda tahlil qilib, kamchiliklarini aniqlashi va ularni bartaraf etish yo'llarini izlab topishi lozim. Bu kasbiy o'sishda muhim ahamiyatga ega.

3. Innovatsion yondashuv: O'qituvchi doimo yangilikka intilib, ta'lim jarayoniga innovatsion usullarni joriy etishi kerak. Bu o'quvchilarning qiziqishini oshiradi va ta'lim samaradorligini yuqori darajaga ko'taradi.

4. Kasbiy kompetentlikni oshirish: O'qituvchi o'z bilim va ko'nikmalarini doimiy ravishda yangilab borishi, malaka oshirish kurslarida ishtirok etishi va yangi pedagogik yondashuvlarni o'rganishi zarur.

5. Shaxsiy fazilatlarni rivojlantirish: O'qituvchi sabr-toqatli, adolatli, mehribon va talabchan bo'lishi kerak. Bu fazilatlar o'quvchilar bilan samarali muloqot o'rnatishda muhimdir.

Ushbu fikrlar A. Xoliqovning “Pedagogik mahorat”[3] kitobida keng, batafsil yoritilgan. O‘qituvchilarning kasbiy ko‘nikmalarini rivojlantirishda muhim yo‘l-yo‘riq bo‘lib xizmat qiladi.

M.M.Axmetjanov, M.Tojiyev, G.D.Toshevalarning “Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat”[4] kitobida o‘qituvchilar kasbiy ko‘nikmalarini rivojlantirishiga oid quyidagi tavsiyalar berilgan:

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889,
2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-3

Davlat va jamiyat hayotini modernizatsiyalash jarayonlarining harakatga keltiruvchi kuchi, O‘zbekistonning bugungi va istiqboldagi izchil taraqqiyotining bosh omili bo‘lgan inson ma’naviyati va salohiyatini yuksaltirishda o‘qituvchilarning tajribasi va mahoratini yanada takomillashtirish muhim ahamiyatga ega. O‘qituvchi bugungi kunda o‘zi ta`lim va tarbiya berayotgan shogirdlarining kamoloti bilan mamlakatimiz kelajagiga poydevor qo'yiladi.

Metodologiya. Bugungi kun o‘qituvchisi o‘z ustida tinimsiz ishlaydigan, har tomonlama keng fikrlaydigan, ilg‘or pedagogik va axborot texnologiyalarini samarali qo‘llay oladigan ijodkor shaxsga, yoshlarning yuragiga chuqur kirib boradigan yuksak fazilatlar egasiga aylanishini hayotning o‘zi taqozo etmoqda. Shu nuqtai nazardan, hozirgi kunda o‘qituvchining pedagogik mahoratini yanada oshirish muammosi davr talabidir. Pedagogik mahorat qirralarining turli jarayonlarini ko‘rib chiqar ekan, olimlar o‘qituvchining pedagogik faoliyatida fikrlash hamda analitik qobiliyatlarini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega ekanligini takidlaydilar. Bu qobiliyatlar asosini esa, o‘qituvchining kasbiy refleksiyasini tashkil etadi. O‘qituvchining innovatsiya faoliyati tuzilmasidagi eng muhim komponent bu reflektsiyadir. Refleksiya o‘qituvchining o‘z ongi va faoliyatini belgilash va tahlil qila olish deb qaraladi.

Kasbiy Refleksiya – o‘qituvchining shaxsiy taraqqiyoti asosi M.M.Axmetjanov, M.Tojiyev, G.D.Tosheva[4] o‘z asarlarida ta’kidlaganidek, refleksiya pedagogik mahoratning muhim komponentlaridan biridir. Shu nuqtai nazardan, o‘qituvchi o‘z faoliyatini muntazam tahlil qilib borishi, dars jarayonida o‘zining kuchli va zaif tomonlarini aniqlashi va ularni yaxshilash ustida ishlashi kerak.

Masalan, zamonaviy o‘qituvchi:

- O‘quvchilarning darsdagi ishtirokini tahlil qilib, ularning qaysi metodikaga yaxshiroq javob qaytarishini o‘rganishi;
- Har bir darsdan so‘ng o‘z faoliyatini baholash va kelgusi darslarga innovatsion yondashuvlar kiritishi;
- O‘quvchilarning fikr-mulohazalarini inobatga olib, o‘qitish metodlarini moslashuvchan qilish kabi refleksiv yondashuvlardan foydalana olishi lozim.

O‘qituvchi nafaqat dars beruvchi, balki jamiyatda yetakchi shaxs bo‘lib, o‘quvchilarni milliy va umuminsoniy qadriyatlarga yo‘naltiruvchi fidoyi insondir. Yosh avlodni tarbiyalashda o‘qituvchining hissasi beqiyosdir. Ayniqsa, yoshlarning bilim olishga bo‘lgan qiziqishini oshirish, ularni kelajak kasblariga tayyorlash va dunyoqarashini kengaytirish o‘qituvchining asosiy vazifalaridandir.

Muhokama va natijalar: Bugungi kunda o‘qituvchilarning kasbiy ko‘nikmalarini rivojlantirish ta’lim sifati va jamiyat taraqqiyoti uchun juda muhim. O‘qituvchi o‘zining pedagogik mahoratini oshirish uchun doimiy ravishda yangi bilimlarni o‘rganishi, zamonaviy texnologiyalar bilan ishlashni o‘zlashtirishi va refleksiv yondashuv asosida o‘z faoliyatini takomillashtirib borishi kerak. Kelajak avlod ta’limi va tarbiyasida o‘qituvchilarning roli beqiyos bo‘lib, ularning pedagogik mahoratini oshirish ta’lim sifatini yuksaltirishning eng muhim omillaridan biridir. Shu sababli, har bir pedagog o‘z ustida ishlashni va rivojlanishni hech qachon to‘xtatmasligi kerak.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, har bir o‘qituvchi o‘z kasbini sevishi, kasbiga oid yangiliklar qilishda davomiy bo‘lishi, zamonaviy talablarni o‘rganishi va innovatsiyalarni o‘zlashtirishga intilishi kerak. Zero, har qanday sohada bo‘lgani kabi pedagogika sohasida ham doimiy rivojlanish muvaffaqiyat kalitidir.

O‘qituvchining kasbiy ko‘nikmalarini rivojlantirish nafaqat uning shaxsiy o‘sishiga, balki ta’lim sifatining oshishiga ham xizmat qiladi. O‘qituvchilarning uzluksiz kasbiy rivojlanishi ta’lim

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889,
2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

VOLUME-5, ISSUE-3

tizimining umumiy yuksalishiga va jamiyatning intellektual salohiyatining oshishiga bevosita ta’sir qiladi. Shu sababli, ta’lim muassasalari o‘qituvchilar uchun doimiy o‘qitish va malaka oshirish tizimini takomillashtirishga alohida e’tibor qaratishi lozim.

FODALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. 2021-yil 25-yanvardagi "Xalq ta'limi sohasidagi ustuvor vazifalar muhokamasi" yig'ilishidan. [UzA.uz, 26.01.2021].
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2020-yil 30-sentabrdagi "O'qituvchi va murabbiylar kuni"ga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqidan. https://president.uz/oz/lists/view/3864].
3. Xoliqov A. “Pedagogik mahorat” Toshkent “IQTISOD-MOLIYA” 2011
4. Axmedjanov M.M., Tojiyev M., Tosheva G.D. “Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat” Toshkent-2018.